SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-son (5-jild)
2025

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5I5Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

## *№ 5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot boʻlimi psixologik xizmat boshligʻi.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Roʻyxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari boʻyicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 5-son (May, 2025). - 569 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Qurbonova Marg'uba*
O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY OMMALASHTIRISH VOSITALARI ........ 13-15

*Polvanov Azim Kuchkarovich*
AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING MANBALARDA YORITILISHI ........ 16-21

*Esnazarova Zulfiya Baltashovna*
QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI (1873 – 1924) ........ 22-27

*Axmedov Shaxzod Farxod o'g'li*
O'ZBEKISTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991 – 2017-yillar) ........ 28-36

*Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid*
IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR XODIMLARNING ISHTIROKI ........ 37-43

*Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li*
XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI ........ 44-47

*Asadova Ra'no Baymanovna*
INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN (CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE) ........ 48-52

*Esanova Nilufar*
1991-2024 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANOAT SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR (HINDISTON VA XITOY MAMLAKATLARI MISOLIDA) ........ 53-56

*Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li*
O'ZBEK XONLIKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR ........ 57-64

*Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li*
HUDUDIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA ........ 65-70

*Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li*
XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT SANOATINING ROSSIYA IQTISODIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI ........ 71-74

*Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich*
MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMIR YO'LINING QURILISHI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI ........ 75-80

*O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li*
ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTON SANOATI ........ 81-88

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI


*Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov*
MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI:
EKSPORTGA YOʻNALTIRILGAN RIVOJLANISH ........ 89-98

*Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi*
MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KOʻRSATISH:
QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI? ........ 99-104

*Xakkulov Akbar Uralovich*
MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI ........ 105-111

*Amonov Mehriddin Oromiddinovich*
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:
AVTOKRATIK RAHBARLAR ........ 112-117

*Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna*
HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI
BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI ........ 118-125

*Yangiboyev Rustam Berdiyarovich*
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI ........ 126-131

*Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich*
DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN
FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK
XIZMATLAR KOʻRSATISH SOHASIDA QOʻLLASH ISTIQBOLLARI ........ 132-143

*Eshqobilova Nigoraxon, Qurbonova Safiyabonu*
DAVLAT BUDJETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING
NAZARIY ASOSLARI ........ 144-150

*Umronov Eldorbek Sodirovich*
HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING
EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KOʻRSATKICHLARI ........ 151-159

*Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz*
OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY
IN UZBEKISTAN ........ 160-172


## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI


*Ahmedova Dilrabo*
YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY
JARAYONLARNING TA'SIRI ........ 173-177

*Raxmatova Xolidaxon Xolikovna*
NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING
FALSAFIY TAHLILI ........ 178-184

*Kurbonaliyev Ural Xatamovich*
ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH
DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI ........ 185-189

*Soipova Mavjuda Karimjanovna*
FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI ........ 190-194

*Jabborova Saodat Sattorovna*
MA’NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI ........................................... 195-198

*Fayziyev Xurshid Jumayevich*
VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI ........................................... 199-204

*Olimova Moxinur Ravshanbek qizi*
YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA’NAVIYATNING O‘RNI ........................................... 205-208

*Usarkulov Oybek*
O‘ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O‘RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOIY AHAMIYATI ........................................... 209-214

*Majidov Sodiqjon Sadullayevich*
IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOIY FALSAFIY TALQINLAR ........................................... 215-218

*Абдуллаева Икбола Мохировна*
КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА ..... 219-226

*Yusupova Ranoxon Tolibjonovna*
MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY- FALSAFIY OMILLARI ........................................... 227-230

*Turabova Sevara Kattaqulovna*
GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI ........................................... 231-235

*Rustamov Ramz Rizoqulovich*
DESTRUKTIV TARG‘IBOT TA’SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI ........................................... 236-240

*Aslanov Said Karimovich*
TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O‘ZORO ALOQADORLIGI ........... 241-244

*G‘aniyev Elbek Abdizoitovich*
YOSHLARDA AXLOQIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI ........................................... 245-248

*Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich*
SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O‘RNI ....................... 249-252

*Ochilova Nigora Ruzimuratovna*
GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI ........................................... 253-258

*Azimov Ozod Mamatkulovich*
YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI ........................................... 259-264

*Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna*
TARIXIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANTIRISH HAQIDAGI QARASHLAR ........................................... 265-271

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Мамбетов Сердар Ахмедович*
СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК ........................................... 272-280

*Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi*
PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS ........................................ 281-288

*Rakhmonova Yulduz Khusanovna*
A HETEROGENEOUS LEGACY:
EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS ........................................ 289-295

*Yakubova Nilufar Egamberganovna*
ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR ........................................ 296-301

*Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna*
ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIIY KONFLIKT MASALASI ........................................ 302-307

*Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida*
MARGARET DRABBLENING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH ........... 308-311

*Nazarov Sardor Shamurodovich*
A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC
FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS ........................................ 312-315

*Otajonova Dildor Baxtiyarovna*
HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK
EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI ........................................ 316-325

*Файзуллина Наргиза Дамировна*
СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО
СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ ........................................ 326-331

*Sodiqova Dinora Ilhom qizi*
ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY
TRANSLATION ........................................ 332-337

*Nazimova Himmatoy*
"DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY
ILDIZLARI TAHLILI ........................................ 338-342

*Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista*
SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR
VA ILHOM MANBALARI ........................................ 343-348

*Azizova Feruza Rejavaliyevna*
TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI
JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI ........................................ 349-353

*Agzamova Gulrux Ravshan qizi*
XITOY TILIDAGI MUROJAAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI ....... 354-358

*Sherkulov Sardor Komilovich*
SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY:
AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION ....... 359-364

*Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim*
DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA ........................................ 365-368

*Bozorova Umida Qilichovna*
BADIIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI ........................................ 369-372

*Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna*
TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI ........................................ 373-376

*Mamadiyorova Hilola*
TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING TA’SIRI ........ 377-384

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Abdullayeva Nodira Odil qizi*
OILAVIY (MAISHIY ) ZOʻRAVONLIK OMILLARI MAJMUASI ........ 385-393

*Joʻraqulov Javohir Musoqul oʻgʻli*
TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR ........ 394-399

*Otamirzayev Oybek Murodullo oʻgʻli*
YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING PREDMETI VA USULLARI ........ 400-407

*Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора*
ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ ........ 408-413

*Nuriddinov Ismoil Oʻlmas oʻgʻli*
BURHONUDDIN MARGʻINONIYNING “HIDOYA” ASARIDA JINOYAT VA JAZO MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR ........ 414-420

*Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi*
SUN’IY INTELLEKTNING NOTOʻGʻRI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR): MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI ........ 421-432

*Burxonov Shahzod Burxon oʻgʻli*
XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI TARTIBGA SOLISH ........ 433-438

*Avezov Umidjon Toshpulatovich*
OʻZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TAHLILI ........ 439-446

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Максудов Улугбек Курбанович*
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ........ 447-453

*Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza*
SUN’IY INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI ........ 454-458

*Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich*
OʻQUV FAOLIYATI TAMOYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

*Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmera*
TALABALARDA TAHLILIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI ........ 464-468

*Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich*
TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 469-478

*Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich*
GLOBALLASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA ........ 479-484

*Esboganova Baxit Daribayevna*
UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARGA AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI ........ 485-490

*Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira*
TEXNOLOGIYA DARSLARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI ........ 491-495

*Абдуллаева Дилдора Улугбековна*
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРАВОВЫХ ДИСЦИПЛИН В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ ........ 496-503

*Xamidova Zaynura Ramazonovna*
STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR ........ 504-508

*Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston*
SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY ........ 509-514

*Avazova Munisa*
TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH: GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI ........ 515-517

*Abdullayeva Mohigul, Fazlitdinov Muhammadali*
SUN'IY INTELLEKT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH ........ 518-521

*Urinova Dilbar Abdusamat qizi*
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI ........ 522-526

*Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi*
BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV METODLARI ........ 527-532

*Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li*
BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI ........ 533-539

*Suvanova Gulbaxor Baxromovna*
KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR ........ 540-543

*Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir*
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI( PIRLS)GA TAYYORLASH USULLARI ........ 544-547

*Djurayeva Nargis Narkulovna*
BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT TARBIYASINING O'RNI ........ 548-552

*Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich*
KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI ........ 553-562

*Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod*
BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI ........ 563-568

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 5 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 15 April 2025
**Accepted:** 1 May 2025
**Published:** 10 May 2025

*Article / Original Paper*

# ANALYSIS OF THE DEVELOPMENTAL STAGES OF TRADE UNION ACTIVITIES IN UZBEKISTAN

**Avezov Umidjon Toshpulatovich**
Independent Researcher
at Karakalpak State University
named after Berdakh

**Abstract.** This article provides a step-by-step analysis of the legal foundations for trade union activities in Uzbekistan during the years of independence. It comprehensively covers their organizational and legal status, as well as their role in society. Specifically, it presents an analysis of laws and international standards related to trade union activities. Special attention is also given to the responsibilities of trade unions in protecting socio-economic rights. Through this analysis, proposals and recommendations are put forward to enhance the prestige of trade unions and strengthen their legal framework.

**Keywords:** trade unions, civil society, social interests, non-governmental non-profit organization, social partnership, public oversight, legal culture, labor relations, primary organization.

# O‘ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TAHLILI

**Avezov Umidjon Toshpulatovich,**
Berdaq nomidagi
Qoraqalpoq davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kasaba uyushmalari faoliyatining huquqiy asoslari bosqichma-bosqich tahlil etildi. Ularning tashkiliy-huquqiy maqomi, jamiyatdagi o‘rni atroflicha yoritilgan. Xususan, kasaba uyushmalari faoliyatiga oid qonunlar, xalqaro standartlar tahlili ko‘rsatilgan. Shuningdek, Kasaba uyushmalarining ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni himoya qilishdagi vazifalariga alohida e’tibor berilgan. Mazkur tahlil orqali kasaba uyushmalarining nufuzini oshirish va huquqiy bazasini mustahkamlash yo‘nalishidagi taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** kasaba uyushmalari, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy manfaatlar, nodavlat notijorat tashkiloti, ijtimoiy sheriklik, jamoatchilik nazorati, huquqiy madaniyat, mehnat munosabatlari, boshlang‘ich tashkilot.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N71

**Kirish.** Mamlakatimizda so‘ngi yillarida fuqarolik jamiyati institutlari son va sifat jihatdan takomillashib bormoqda. Kasaba uyushmalari ham fuqarolik jamiyati instituti sifatida inson huquq va erkinliklarini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash joizki, kasaba uyushmalari fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy va mehnatga oid manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan ixtiyoriy jamoat birlashmalari hisoblanib, ular davlat va ish beruvchilardan mustaqil tarzda faoliyat yuritishi Konstitutsiya va maxsus qonunlarda kafolatlangan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** A.Masharipov haqli ravishda ta'kidlab o'tganidek, "fuqarolarning ijtimoiy hamda mehnat sohasidagi faolliklarini ta'minlash, boshqaruvni samaradorligini oshirish, demokratiyani keng yoyish hamda inson huquq va erkinlarini himoya qilish muayyan darajada kasaba uyushmalari faoliyatiga bog'liq"[1]. Huquqshunos olimlar M.K.Najimov va Sh.N.Nazarovlar fuqarolik jamiyati institutlarining mustaqillik yillaridagi rivojlanishini 3 ta bosqichga ajratib ko'rsatadilar.

**Muhokama.** Mualliflarning fikricha, fuqarolik jamiyati institutlari rivojining birinchi bosqichda (1991-2000-yillar) O'zbekiston siyosiy tizimining huquqiy negizini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. 2001-2010-yillarni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqichda mamlakatimiz siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishi sohalarini yanada erkinlashtirish eng muhim vazifa bo'lib hisoblangan.

Mazkur tasnifdan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda kasaba uyushmalari faoliyatining huquqiy asoslarining tadrijiyligiga ko'ra quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganish mumkin.

*Birinchi bosqich: 1991-yildan 2010-yilgacha bo'lgan davr:* O'zbekistonda kasaba uyushmalari faoliyatining dastlabki bosqichlarini 90-yillar boshida ijtimoiy hayotning har bir sohasida kasaba uyushmalarining mustaqillikka bo'lgan harakatlari bilan bog'lab tavsiflash mumkin.

Mustaqillik yillarida kasaba uyushmalarining bozor iqtisodiyoti talablari asosida faoliyatini yo'lga qo'yishni huquqiy jihatdan ta'minlash borasida bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi (O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni 1991-yil 15-fevral; O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni 1999-yil 14-aprel). Boshqa jamoat tashkilotlari kabi kasaba uyushmalari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli normalari bilan mustahkamlab qo'yildi. Xususan, Konstitutsiyaning "Fuqarolik jamiyati institutlari" deb nomlangan XIII bobida fuqarolarning kasaba uyushmalariga birlashish huquqi, kasaba uyushmalari tashkil etish erkinligi, mustaqil faoliyat ko'rsatishi, boshqa jamoat birlashmalari bilan teng huquqli ekanligi yuzasidan muayyan normalar belgilangan. Shuningdek, Konstitutsiyaning 39, 69, 72, 73-moddalari ham bevosita kasaba uyushmalari faoliyatiga taalluqlidir[2]. Kasaba uyushmalarining asosiy maqsadi Konstitutsiyamizning 59-moddasida aniq berilgan bo'lib, unga ko'ra mazkur tashkilot xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etishi va himoya qilishi lozim.

1991-yil boshida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi 21 tarmoq kasaba uyushmalari, 12 ta uyushmalararo kasaba birlashmalari bilan ikki tomonlama shartnomalar asosida birlashgan.

1992-yildagi qabul qilingan "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda kasaba uyushmalari tushunchasi, fuqarolarning kasaba uyushmalariga uyushish huquqi, kasaba uyushmalarining mustaqilligi, fuqarolarni kasaba uyushmalariga mansubligiga qarab kamsitishni taqiqlash, kasaba uyushmalari faoliyatini to'xtatish yoki taqiqlash, kasaba uyushmalarining asosiy huquqlari, kasaba uyushmalari huquqlarining kafolatlari, ma'muriyat, davlat va xo'jalik idoralari, jamoat tashkilotlari va mansabdor shaxslarning kasaba uyushmalariga nisbatan majburiyati, kasaba uyushmalari va ularga qarashli korxonalarning mulkiy va moliyaviy huquqlari hamda boshqa ko'plab masalalar o'z yechimini topgan[3]. Kasaba uyushmalari to'g'risidagi qonun hujjatlarida kasaba uyushma

a’zolarining faoliyatini kafolatlovchi va ish beruvchining har qanday ta’qib qilishni taqiqlash, intizomiy jazolarni tayinlash, mehnat shartnomasini bekor qilish, kasaba uyushmalariga saylash lavozimlari tugagandan so‘ng, avvalgi ish joyini kafolatlash bilan bog‘liq bir qator normalar mavjud [4].

Mazkur Qonunda kasaba uyushmalarining faoliyati bilan bog‘liq ayrim tushunmovchiliklar hamda chalkash holatlar mavjud edi. Jumladan, korxonada saylangan kasaba uyushma qo‘mitasi va kasaba uyushmasi bir xil tushunchalarmi yoki biron tarmoq kasaba uyushmasining tuman, viloyat qo‘mitasi yohud kengashi ham kasaba uyushmasi hisoblanadimi, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi huquqiy maqomi jihatdan kasaba uyushmasi sanaladimi kabi savollar bir qator toifa vakillari o‘rtasidagi bahslarga sabab bo‘lar edi. Buning natijasida ba’zida kasaba uyushmalarining faoliyatini tartibga solish maqsadida qabul qilingan ichki, lokal hujjatlarda ham qonunni qo‘llashdagi noaniqlar kuzatilar edi.

Mazkur bosqichda kasaba uyushmalari huquqiy maqomi, vazifalari, ularning asosiy maqsadi singari masalalari huquqiy jihatdan aniq yoritilmagan edi. Shuningdek, mazkur sohani tartibga soluvchi qonun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi va boshqa sohaviy qonunlardan oldin qabul qilinganligi tufayli, undagi normalar o‘sha davr talablariga, milliy qonunchiligimizga hamda mehnat sohasidagi xalqaro standartlarga to‘liq javob bermas edi. Kasaba uyushmalarining aniq huquqiy maqomini, tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish zaruriyati mavjud edi.

*Ikkinchi bosqich: 2010-yildan-2019-yilgacha bo‘lgan davr.* Mazkur davrdagi islohotlar Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirishga oid muhim vazifalar belgilab berilganligi, shuningdek O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi islohotlar bilan bog‘liq.

2016-yilda “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida”gi Qonun qabul qilindi. Yangi tahrirdagi kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar orqali qonunning avvalgi tahriridagi kamchiliklar bartaraf etilgan. Ushbu qonunning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo‘lgan kasaba uyushmalariga birlashish huquqi aks ettirilgan. Shuningdek, mazkur qonunda xalqaro standartlar aniq aks ettirilgan bo‘lib, Xalqaro Mehnat Tashkilotining barcha asos soluvchi tamoyillari belgilangan konvensiyadagi qoidalar aks ettirilgan. Shuningdek, qonundagi atamalar Mehnat kodeksidagi atamalar bilan muvofiqlashtirildi. Xususan, unda kasaba uyushmalari birlashgan respublika uyushmasining nomi “O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi” deb nomlangan edi.

2011-yilda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga a’zo bo‘lgan 2 ta tarmoq kasaba uyushmalari tizimidagina “Boshlang‘ich tashkilot to‘g‘risida Nizom” ishlab chiqilgan va amal qilinardi, Federatsiya tizimidagi boshlang‘ich tashkilotlar to‘g‘risida yagona Nizom yo‘q edi. 2011-yilda “O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi boshlang‘ich kasaba uyushmasi tashkiloti to‘g‘risida namunaviy Nizom” tasdiqlandi va hozirgi kunda amal qilmoqda. Kasaba uyushmalari tizimidagi oxirgi o‘zgarishlarni inobatga olgan holda, bugungi kunda mazkur nizomning yangi tahriri ishlab chiqilmoqda.

Mazkur bosqichda Qonunga o‘zgartirishlar kiritilganligiga qaramay, kasaba uyushmalarining tashabbuskorligi past edi, jamiyat hayotida jamoatchilik nazoratini amalga

oshirishdagi roli ham samarali amalga oshirilmagan edi. Fuqarolik jamiyati instituti sifatida kasaba uyushmalari insonning mehnat qilish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi huquqlarini himoya qilishda rolini oshirishga ehtiyoj kuchayayotgan edi. Zamon talabining oʻzgarishi va globallashuv jarayonining tezlashishi ushbu Qonunga ham sezilarli oʻzgartirishlar kiritishi talab etardi.

*Uchinchi bosqich 2019-yildan hozirgi kungacha boʻlgan davr:* 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari toʻgʻrisida"gi qonun davr nuqtai nazaridan oʻzining tarixiy vazifasini bajarib boʻlgan hamda zamonaviy mehnat munosabatlari tizimida ishchilarning huquq va manfaatlarini toʻlaqonli himoya qilishning huquqiy asoslariga ega emas edi[5]. Qonunga 2001-yil 7-dekabrda va 2016-yil 28-noyabrda qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritilgan boʻlsa-da, u, asosan, deklarativ xarakterda boʻlib, aniq toʻgʻridan toʻgʻri amal qiluvchi huquqiy normalar deyarli keltirilmagan[6]. Mulkchilik shakllarining oʻzgarishi va oʻz navbatida ish beruvchilarning turlarini oʻzgarishi kasaba uyushmasi a'zolarini ijtimoiy mehnat sohasidagi huquqlarini himoya qilishda, xodimlarni kasaba uyushmasiga a'zolikka jalb qilishda muayyan kamchiliklarni bartaraf etish hamda qonunni "Jamoat birlashmalari toʻgʻrisida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlar toʻgʻrisida"gi, "Ijtimoiy sheriklik toʻgʻrisida"gi, "Jamoatchilik nazorati toʻgʻrisida"gi qonunlarga muvofiqlashtirish zaruriyati vujudga kelgan edi.

2019-yil 6-dekabrdagi Oʻzbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari toʻgʻrisida"gi Qonun fuqarolarning kasaba uyushmalariga birlashish huquqini amalga oshirish, shuningdek, kasaba uyushmalarini tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonuni kasaba uyushmalari faoliyatidagi uchinchi bosqichni boshlab berdi.

Qayd etilganidek, 2019-yilgacha qabul qilingan qonunlar normalari ancha eskirgan va Mehnat kodeksi, "Aholini ish bilan ta'minlash toʻgʻrisida"gi, "Mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari toʻgʻrisida"gi, "Jamoatchilik nazorati toʻgʻrisida"gi Qonunlar normalarini konseptual jihatdan oʻzida aks ettirmas edi. Shu munosabat bilan ushbu sohani tartibga soladigan yangi Qonun qabul qilindi.

Bu borada kasaba uyushmalari faoliyatini xalqaro huquqiy jihatdan tartibga soluvchi hujjatga e'tibor qaratar ekanmiz, 2017-yilning 12-dekabr kuni Oʻzbekiston Respublikasi uchun 1948-yil 9-iyulda San Fransisko shahrida (AQSH) imzolangan Xalqaro mehnat tashkilotining birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish toʻgʻrisidagi 87-sonli Konvensiyasi[7] kuchga kirganligi e'tirof etish lozim.

Mazkur qonunda kasaba uyushmalarining tuzilishi, tashkiliy huquqiy asoslari, huquqiy maqomi bilan bogʻliq bir qator yangi normalar oʻz ifodasini topdi. Ushbu normativ-huquqiy hujjat oʻz ichiga 9 ta bobdan tashkil topgan 56 ta moddani qamrab oldi. Yangi tahrirdagi qonuning oʻziga xos jihati shundan iboratki, unda kasaba uyushmalari, ular birlashmalarining huquqlari, ularni tashkil etish, qayta tashkil etish, faoliyatini tugatish tartibi, shuningdek, ular faoliyatining iqtisodiy asoslari aniq belgilab berildi. Umuman olganda, kasaba uyushmalarning tashkiliy-huquqiy asoslariga toʻxtalar ekanmiz, Mehnat kodeksining 20-moddasida kasaba uyushmalari, ularning korxonadagi saylab qoʻyiladigan organlari, xodimlar tomonidan saylab qoʻyiladigan boshqa organlar, ish beruvchilarning vakillik organlari mehnatga oid munosabatlarning subyektlari sifatida qatnasha olishi belgilab qoʻyilgan. Mazkur normada kasaba uyushmalarining faoliyat shakllari toʻgʻrisida yetarlicha ma'lumotlar qonun hujjatlarida aks ettirilmagan edi.

Kasaba uyushmalarining korxonadagi saylab qoʻyiladigan organlari deganda, uning rayosati, kengashi, boshlangʻich tashkiloti, kasaba uyushmasi qoʻmitasi, sex qoʻmitasi, kasaba uyushmasi guruhlari tushunilmogʻi lozim. Shu bilan birga yangi tahrirdagi "Kasaba uyushmalari toʻgʻrisida"gi Qonunga yuqorida sanab oʻtgan yangiliklarning kiritilishi uning eski tahriri bilan oʻzaro farqini yoritib berdi. Amaldagi qonunda kasaba uyushmasiga fuqarolarning oʻz faoliyati yoki oʻqishi turi boʻyicha umumiy kasbiy manfaatlari bilan bogʻliq boʻlgan, ularning mehnatga oid, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish maqsadida tuziladigan, oʻz ustavi asosida faoliyat koʻrsatadigan ixtiyoriy jamoat birlashmasi sifatida ta'rif berildi. Kasaba uyushmasi boshqa turdagi jamoat tashkilotlaridan farqli ravishda faqatgina jismoniy shaxslar tomonidan tuzilishi mumkin va ular boshqacha yoʻl bilan tuzilmaydi. Kasaba uyushmalarining a'zolarini faqat yakka tartibda roʻyxatga olinadigan a'zolari, ya'ni xodimlar, mehnatkashlar tashkil qiladi.

Nodavlat-notijorat tashkilotlar esa bundan farq qilgan holda ham jismoniy shaxslar, xam yuridik shaxslar tomonidan tuzilishi mumkin. Kasaba uyushmalari bu koʻngilli jamoat tashkiloti boʻlib, ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga qarab oʻz a'zolarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bogʻlangan mehnatkashlarni birlashtiradi[8].

Shu bilan birga, kasaba uyushmasining ish beruvchi hududida joylashuvi ish beruvchi va xodim oʻrtasida kelib chiqqan kelishmovchiliklarni oʻz vaqtida bartaraf etishga, xodim huquqlarini himoya qilishga zamin boʻladi.

Yangi tahrirda qabul qilingan qonun orqali boshlangʻich kasaba uyushmasi tashkiloti — bir yoki bir nechta ish beruvchida ishlaydigan yoki tegishli ta'lim muassasasida oʻqiydigan kasaba uyushmasi a'zolarining tegishli kasaba uyushmasi ustavi asosida faoliyat koʻrsatadigan ixtiyoriy birlashmasining ham vakolatlari mustahkamlandi. Boshlangʻich kasaba uyushmasi tashkiloti "kasaba uyushmasi"dan farq qilgan holda (kasaba uyushmasi – hali kasaba uyushmasiga a'zo boʻlmagan va shu kasaba uyushmasini tuzish ixtiyorini bildirgan fuqarolar tomonidan tuziladi), kasaba uyushmasi a'zolari tomonidan ixtiyoriy ravishda tuziladi va u oʻziga mansub boʻlgan kasaba uyushmasining ustavi asosida faoliyat yuritadi.

**Natijalar.** Boshlangʻich kasaba uyushmasi tashkiloti – ayni vaqtda qaysidir kasaba uyushmasiga a'zo boʻlgan va bir yoki bir nechta ish beruvchida ishlaydigan yohud tegishli ta'lim muassasasida oʻqiyotgan fuqarolarning tashabbusi bilan tuzilishi mumkin ekanligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Zero, boshlangʻich kasaba uyushmasi tashkilotini tuzishning oʻziga xos, xususiyatlari, talablari va qoidalari borki, bunday tashkilotni tuzishda ularga, albatta, rioya qilinishi kerak. Aks holda, talab va qoidalarga rioya qilinmagan holda tuzilgan tashkilot – vakolatli, ya'ni qonuniy tashkilot deb tan olinmaydi va oʻz navbatida bunday tashkilot tomonidan qabul qilingan qaror yoki boshqa hujjatlar ham qonuniy kuchga ega boʻlmaydi. Kasaba uyushmalari tizimidagi yana boshqa tashkiliy birlik kasaba uyushmalarining birlashmasi hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikka koʻra, xodimlarning kasbiy, mehnatga oid, ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini amalga oshirish hamda himoya qilishda harakatlarning muvofiqlashtirilishiga va birligiga erishish maqsadida tarmoqqa doir, hududiy yoki kasbiy oʻziga xoslikni hisobga oluvchi boshqa belgi boʻyicha tuziladigan ixtiyoriy birlashma kasaba uyushmalarining birlashmasi deb nomlanadi. Kasaba uyushmalarining birlashmalari bevosita jismoniy shaxslar tomonidan emas, balki yuridik shaxslar tomonidan tuzilishi sababli nodavlat notijorat tashkilot hisoblanadi. Birlashmalar turli shakllarda boʻlishi mumkin.

Masalan, assotsiatsiya, birlashma, ittifoq, federatsiya, konfederatsiya va boshqalar. Xalqaro miqyosda "Kasaba uyushmalari umumkonfederatsiyasi" va "Xalqaro kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi" kabi va boshqa birlashmalar faoliyat olib boradi. Oʻzbekiston Respublikasida bugungi kunda viloyatlarda "Viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari Birlashmasi", respublika miqyosida esa "Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi" deb nomlanuvchi birlashmalar faoliyat koʻrsatadi. Hozirgi kunda Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi 14 ta tarmoq kasaba uyushmalari, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, 12 ta viloyat, Toshkent shahar kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmalarini, 6,1 mln.dan ortiq kasaba uyushmalari a'zolarini birlashtiradi[9].

Shu oʻrinda kasaba uyushmalarining birlashmasini birlashgan kasaba uyushmasi qoʻmitasi bilan adashtirish kerak emas. Birlashgan kasaba uyushmasi qoʻmitasi yuridik shaxs maqomidagi kasaba uyushmalarini emas, balki kasaba uyushmalari tizimidagi qoʻmitalarni birlashtiradi. Kasaba uyushmalari tarkibidagi eng soʻnggi tashkiliy birlik Kasaba uyushmasining boʻlinmasidir. Mazkur boʻlinmagan kasaba uyushmasining ustaviga muvofiq tashkil etiladigan, tegishli hududda uning vazifalarini yoki vazifalarining bir qismini amalga oshiradigan boʻlinma, deb ta'rif berilgan. Bunga misol tariqasida biror bir tarmoq kasaba uyushmasining tuman, viloyat, shahar qoʻmitalarini (kengashlarini) yoki mas'ul tashkilotchisini, tashkilotdagi boshlangʻich kasaba uyushma tashkilotining kasaba uyushma Qoʻmitasini koʻrsatish mumkin. Bundan tashqari yangi tahrirda qabul qilingan qonun asosida kasaba uyushmalarining vakolat doirasi yana kengaytirildi.

Jumladan, qonunning 44-moddasiga asosan, xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli boʻlgan normativ-huquqiy hujjatlarga hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maqsadida kasaba uyushmalarining, ular birlashmalarining va boʻlinmalarining tuzilmasida kasaba uyushmalarining tegishli inspektorlari faoliyat koʻrsatadigan inspeksiyalar tuzilishi mumkinligi belgilab qoʻyildi.

Mamlakatimizda kasaba uyushmalarining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan qonun hujjatining qabul qilinishi xodimlarning huquqlarini himoya qilishga ixtisoslashgan jamoa tashkiloti boʻlgan vakillik organlari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Hozirgi zamon talablariga muvofiq ravishda kasaba uyushmalari faoliyatini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston kasaba uyushmalarining qonun ijodkorligi sohasidagi ishtiroki, bandlikni ta'minlashga koʻmaklashish, mehnatni muhofaza qilish, mehnatkashlar, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va mehnat sohasidagi huquqlarini himoyalash, aholi bilan qayta aloqani yoʻlga qoʻyish yoʻnalishlaridagi faoliyatini takomillashtirish maqsadida Kasaba uyushmalari Federatsiyasiga qonunlarning konstitutsiyasiga muvofiqligi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilish tartibini joriy etish lozim. Konstitutsiyaviy sudning asosiy vazifasi Konstitutsiyani himoya qilish, uning barcha boshqa qonun hujjatlaridan ustunligini ta'minlash hisoblanadi. Bugungacha qabul qilingan qarorlar asosan soliq, mehnat munosabatlari, tadbirkorlik faoliyati, litsenziyalash, ijtimoiy sugʻurta, chet el investitsiyalari, advokatlik faoliyati, Konstitutsiyaviy sud vakolatlari va fuqarolikni yoʻqotish masalalari boʻyicha boʻlib, bevosita fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish boʻyicha deyarli qaror qabul qilinmagan[10]. Kasaba uyushmalari bevosita fuqarolarning mehnatga oid, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquq va

manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilishni bevosita amalga oshirganligi bois, mehnat munosabatlari sohasidagi qonunlarning konstitutsiyaga muvofiqligi masalasi yuzasidan Konstitutsiyaviy sudga masala kirituvchi subyekt sifatida kiritilishi lozim.

Shuningdek, kasaba uyushmalari aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, birlashish huquqlarini amalga oshirish, ijtimoiy va huquqiy himoya samaradorligini ta’minlash maqsadida ma’lumot-maslahat xizmat markazlarini yaratishi, hamda mazkur markazlarning asosiy maqsadi etib fuqarolarning mehnat sohasidagi huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatini oshirish etib belgilashi maqsadga muvofiqdir. Mazkur markazlarning tashkil etilishi kasaba uyushmalarining jamiyat hayotidagi rolini oshirish, uni chinakam mehnatga oid, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilishda nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

**Xulosa** sifatida O‘zbekistonda kasaba uyushmalari faoliyatining huquqiy asoslarini shakllanishiga ko‘ra quyidagi bosqichlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

birinchi bosqich 1991-yildan 2010-yilgacha, (kasaba uyushmalari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining mustahkamlanishi bilan bog‘liq);

ikkinchi bosqich 2010-yildan 2019-yilgacha (fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirishga oid muhim islohotlar, shuningdek, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi islohotlar bilan bog‘liq);

uchinchi bosqich 2019-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davrni qamrab oladi hamda “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi yangi tahrirda Qonun qabul qilinishi bilan bog‘liq.

Istiqbolda kasaba uyushmalarining maqsadi hamda funksiyalaridan kelib chiqqan holda qonun hujjatlarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- kasaba uyushmalari faoliyatining asosiy funksiya va prinsiplarini huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- kasaba uyushmalarining, ular birlashmalarining huquqlariga rioya etilishi kafolatlarini kuchaytirish;
- kasaba uyushmalarini, ularning birlashmalarini, bo‘linmalarini hamda boshlang‘ich kasaba uyushmalari tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va ularning faoliyatini tugatish tartibini takomillashtirish;
- kasaba uyushmalarining xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilish masalalarini hal qilishdagi huquqlarini kengaytirish;
- kasaba uyushmalari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish samaradorligi oshirish.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Машарипов. А. Деятельность профсоюзов Узбекистана по защите социалных интересов трудящихся. (1971-1990 гг.) Опыт.Уроки. Проблемы. Автореф.дисс. д.и.н. Т. 1991.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: O‘zbekiston, 2023. – 128 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 9-сон, 344-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002 й., 1-сон, 20-модда
4. Г.Саттарова. Конституционные основы деятельности профсоюзов Узбекистана. https://constitution.uz/ru/pages/kasaba
5. Депутатлар «Касаба уюшмалари тўғрисида»ги қонунни қандай қабул қилди? https://meningfikrim.uz/uz/news/view/407

6. Ўзбекистон Республикасининг "Касаба уюшмалари тўғрисида"ги янги Қонуни ва уни хаётга тадбиқ этиш бўйича ахборот. http://samarqand.kasaba.uz/uzbekiston-resublikasining-kasaba-uyushmalari-tugrisida-gi-yangi-qonuni-va-uni-hayotga-tadbiq-etish-bujicha-a-h-b-o-r-o-t/
7. Халқаро меҳнат ташкилотининг бирлашмалар эркинлиги ва касаба уюшмаларига бирлашиш ҳуқуқини ҳимоя қилиш тўғрисидаги 87-сонли Конвенциясини (Сан-Франциско, 1948 йил 9 июль) ратификация қилиш ҳақида https://old.gov.uz/uz/news/view/7731
8. Ўзбекистон юридик энциклопедияси.-Т.: Адолат. 2009. (Legal encyclopedia of Uzbekistan. –T.: Adolat. 2009.)
9. https://kasaba.uz/uzbekiston-kasaba-uyushmalari-federatsiyasining-tarihi/
10. М.Ниязматов. Қарорлар бор, амалий ўзгаришлар йўқ. Конституциявий суднинг 23 йиллик фаолиятига назар. https://kun.uz/news/2018/12/16/qarorlar-bor-amaliy-ozgarishlar-yoq-konstitutsiyaviy-sudning-23-yillik-faoliyatiga-nazar

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).